

O'ZBEK XALQ FOLKLORI IJODINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saloxov Nuriddin Muxiddinovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: *Maqolada folklor san'ati tarixi, uning ildizlari, asosiy mezonlari va bugungi kundagi ahamiyati qay darajada ekanligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, san'at, folklor, nomoddiy madaniy meros, doston.*

Abstract: *The article highlights the history of folklore art, its roots, main criteria and degree of importance today.*

Keywords: *culture, art, folklore, intangible cultural heritage, epos*

Madaniy meros xazinasidan biri miliy musiqa bo'lib, u xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unlikda, milliy madaniyat namunalari bilan bir qatorda avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Shu nuqta nazardan qaraganda milliy musiqa ta'lim taraqqiyotining o'ta muhim omili bo'lib, boshqa xalqlarning musiqa tarixi va madaniyatiga hurmat ko'zi bilan qaragan holda yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishida hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan.

Tarbiya jarayonida folklor musiqasi va qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni milliy-ma'naviy tarbiyalashning o'zga xos imkoniyatlari beqiyosdir. Folklor musiqasi va qo'shiqlari mazmunida shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-ahloqiy qarashlar mujassamlashgan. Ular mazmunida ota-onalarning hurmatlarini saqlash, qarindosh-urug' hamda qo'ni-qo'shnilar bilan samimiyy munosabatda bo'lismish, ularga g'amxo'rlik, mehribonlik, mehr-oqibat ko'rsatish, quvonchu tashvishlariga sherik bo'lish, dillariga ozor yetkazmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Milliy folklor musiqasi va qo'shiqlari xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tarixiy tajribasi, ijtimoiy qarash hamda uni amalga oshirish yo'lida tashkil etiladigan faoliyat yo'naliishlari, shaxsga ta'lim va tarbiya berish an'analari asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida tarixiy vorislik tamoyiliga muvofiq avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Folklor musiqasi va qo'shiqlaridagi o'zaro uyg'unlashgan so'z va ohangning ta'sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati beqiyosdir. Ular yordamida ifoda etilgan o'git, pand-nasihat shaxs tomonidan tez qabul qilinadi. Musiqa ta'limida folklor musiqasi va

qo'shiqlarini o'rgatish vositasida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Folklorshunoslik - xalq ijodi haqidagi fan hisoblanadi. Folklor turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirk kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzziy bog'liqdir. Folklorning asoslari qadimiy dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urfodat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari folklor uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar 11 asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Maxmud Koshg'ariynit "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi.

XIIIasr va XIX-asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uni chinakamiga o'rganish boshlandi. Natijada Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo'nalishlar, mакtablar yuzaga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik mакtab bo'lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qad. miflarga bog'laydi. Ma'rifatparvarlar esa, folklorning demokratik va sinkretik xarakterini, undagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar birligini o'rganishga aloqida e'tibor berdilar.

Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan boiib, u "xalq donoligi" degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari - me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs. og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan tumi "folklor" deb ataydi. Bunga misol, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchilagini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.

Dastlabki vaqtarda "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "xalq og'zaki ijodi" deb yuritilib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarifov (1934-35 yillar) tomonidan qoilanilgan "folklor", "O'zbek folklori" sifatida keng ommalashdi. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ko'plab janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati namunalari boiib, xalq hayoti, tarixi, orzu-intilishlari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda o'zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og'izdan-og'izga, avloddan-avlodlarga o'tib keladi. Folklor - sinkritik xususiyatga ega bo'lib, barcha san'at turlariga xos elementlarni o'zida mujassamlashtirgan, unda so'z, kuy va maium turlarida raqs uyg'unlikda ijro etiladi. Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag'zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik

tushinchalardan mukammal diniy e'tiqodiga boigan tushinchalar tadrijiy ravishda bo'y ko'rsatadi. Folklor asarlari so'z san'ati sifatida, o'ziga yaqin yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan bir qator xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadi. Folklorga xos bu xususiyatlar avvalo uning jamoaviy (kollektiv) ijod ekanligida, shu sababli ham folklor namunalarining muallifi xalq ommasi hisoblanadi, ularning aniq ijodkori nomaium - anonimlik ularga xos va xalq orasida avloddanavlodga og'zaki tarzda o'tib tarqaladi, og'zaki ijod etilib, ijro qilinadi, ijro va ijodda an'analarga rioya etilib, ijro jarayonida variantlargz va davrlar o'tib versiyalargii ega boiadi. Ushbu asosga ko'ra, folklorga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og'zakilik, an'anaviylik, variantlilik va versiyaviylik ko'rsatiladi.



Xulosa qilib aytganda folklor musiqa san'atini o'rganish o'quvchilarda ming yillik tarixga ega bo'lgan urf-odatlar, udumlar, marosimlarimizga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat uyg'otadi.

Folklor musiqa san'ati, folklor etnografik ansamblari, xalq udumlari, urf-odatlar, mavsumiy marosimlar an'anaviyligi, turli-tuman hodisalarini tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o'rinn tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk keljakni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'nnaviyat, 2008.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010. 22
5. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T., 2005.
6. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009.
7. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
8. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
9. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.

10. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 1995.
11. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O'zbekiston, 2012.
12. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.
13. Introduction to Folklore. London, 2008.
14. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI
15. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР.
16. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Переярёсток культуры, 1(4).
17. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.